

MILLIY DAVLAT SUVERENITETIGA BEVOSITA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

Hamroyev Sanjar Samiyevich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi,

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail : www.s.hamroyev28@gmail.com

ORCID: 0000-0001-7775-8483

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada globallasuv sharoitida milliy davlatlar suverenitetiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, bunda tashqi qarz, xalqaro tashkilotlarga a'zolik, tabiiy resurslarning yetishmasligi, anklav va ekslav hududlarning mavjudligi, qo'shni davlatlar harbiy salohiyatining yuksalishi, iqtisodiy sanksiyalar qo'llanishi, avtonom hududlarning mavjudligiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki Globallasuv taqdim etayotgan imkoniyatlar davlatlar suverenitetini mustahkamlash barobarida uni sekin asta yemirishga ham olib kelmoqda. Ayniqsa, endi rivojlanayotgan mamlakatlar xalqaro global kuchlarning geosiyosiy, geoiqtisodiy, geomafkuraviy “o‘yin”lari “qurboni”ga aylanish ehtimoli tobora oshib bormoqda. Bunda milliy davlatlar o‘z suverenitetiga, avvalo, bevosita ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab olishi va kerakli profilaktik choralarni ko‘rib qo‘yishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun mamlakat intellektual salohiyatini yuksaltirish globallasuv jarayonlarida teng ishtirok qilish darajasiga ko‘tarilishga va milliy davlat suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki bugungi kundagi rivojlangan davlatlarning tarixiy rivojlanish bosqichiga nazar tashlasak bunda ilm-fan borasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarning o‘rni borligiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun ham mamlakat intellektual salohiyatining yuksakligi suverenitetga salbiy ta'sir qilishda vosita sifatida foydalanish mumkin bo‘ladigan omillar imkoniyatini cheklaydi.*

***Kalit so‘zlar:** globallasuv, davlat, suverenitet, milliy davlat, tashqi qarz, anklav va eksklav, tabiiy resurs, xalqaro tashkilot, harbiy salohiyat, intellektual salohiyat.*

***Abstract.** This article analyzes the political-philosophical factors that directly affect the sovereignty of national states in the context of globalization, including foreign debt, membership in international organizations, lack of natural resources, the existence of enclaves and exclaves, the military presence of neighboring countries,*

special attention is paid to the increase of the potential, the application of economic sanctions, the existence of autonomous regions. Because the opportunities offered by globalization, while strengthening the sovereignty of states, also lead to its gradual erosion. Especially now, developing countries are more and more likely to become "victims" of geopolitical, geoeconomic, geoideological "games" of international global forces. In this regard, it is of urgent importance that national states, first of all, determine the factors that directly affect their sovereignty and take the necessary preventive measures. For this purpose, raising the intellectual potential of the country serves to increase the level of equal participation in the processes of globalization and to strengthen the sovereignty of the national state. Because if we look at the stage of historical development of today's developed countries, we can see that there is a place for achievements in science. That is why the high intellectual potential of the country limits the possibility of factors that can be used as a tool for negatively affecting sovereignty.

Key words: *globalization, state, sovereignty, national state, foreign debt, enclave and exclave, natural resource, international organization, military potential, intellectual potential.*

KIRISH

Insoniyat bugun erishayotgan jamiki yutuqlar qadim sivilizatsiyalar evolyusiyasining davomi bo'lib, jamiyatning barcha sohalaridagi globallashuv shiddati tufayli misli ko'rilmagan darajada rivojlanib bormoqda. Globallashuv tobora o'zining dixotomik, ya'ni ikkitomonlama, gohida ijobiy, gohida salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Garchand globallashuv hozirgi davr voqeligi bo'lmasa-da, uning zamon bilan hamnafasligi muayyan davrda oldindan aytib bo'lmaydigan yangi muammolarni keltirib chiqarib, ushbu muammolarning yechimini talab qilishi bilan xarakterlanadi. Aks holda, ushbu muammolar butun insoniyatning tanazzuliga sabab bo'lishi ehtimoliga aylanadi. Misol uchun, 2019 yil Xitoyning Uxan provinsiyasida boshlangan epidemiya oradan hech qancha vaqt o'tmay butun dunyo tashvishiga aylanib, pandemiya darajasiga chiqqani insoniyat va davlatlar taqdiri bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini hamda bu kabi muammolar globallashuv sharoitida davlatlararo, millatlararo hamjihatlik har narsadan ustun ekanligini isbotlamoqda.

Globallashuvning obyektiv voqelik ekanligini inobatga olgan holda, unga qarshi kurashish emas, aksincha undan samarali foydalanish mexanizmini yo'lga qo'ya olgan mamlakatlar bugungi kunda har tomonlama taraqqiyotga erishmoqdalar. Globallashuv boy, qudratli davlatlarning yanada boyishiga, kambag'al davlatlarning yanada qashshoqlashuviga ham olib kelishi mumkin. Jumladan, bugun fan, texnika va

texnologiyada ilg'or mamlakatlar globallashuv markazlari sifatida namoyon bo'lib, ular bu mavqelarini yo'qotib qo'ymaslik uchun turli usul va vositalarni ishga solmoqdalar. Hattoki o'z manfaatlari yo'lida endi rivojlanish yo'liga kirgan milliy davlatlar, xalqlar va millatlar suverenitetiga ham dahl qilmoqdalarki, buning natijasida jahon geosiyosatida o'z ta'sir doiralarini uzoq davr mobaynida kafolatlashga urinishmoqda. Chunki endi rivojlanayotgan milliy davlatlar aholisi arzon ishchi kuchi sifatida, hududi esa tabiiy resuslarga boyligi bilan rivojlangan davlatlar taraqqiyotining davomiyligini ta'minlashga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham endi rivojlanayotgan milliy davlatlarning oldida globallashuv sharoitida o'z suverenitetini saqlab qolish va mustahkamlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Globallashuv va milliy davlat suvereniteti munosabatlari, ularning o'zaro ta'siri, turli tahdidlar sifatida namoyon bo'lishi masalalari dunyo va yurtimiz olimlari tomonidan doimiy ravishda o'rganilib kelinayotgan asosiy mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Jumladan, globallashuvning milliy davlat suverenitetiga ta'sirlarini keng ko'lamda o'rganish o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, G'arb olimlaridan Bek Ulrix [1], Richard Bolduin [2], Entoni Giddens [3], Meyjor Kori J. Petro [4], Julian G. Ku va Jon Yu[5]; rossiyalik olimlardan: M.Delyagin [6], A.Isaev [7], N.Grachev [8], E.Azroyans[9] va boshqalarning e'lon qilgan izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, globallashuv hodisasining davlat va jamiyatning ma'naviy, madaniy va mafkuraviy hayotiga o'tkazayotgan tahdidlari, ta'sirlariga oid qarashlar Respublikamiz olimlaridan S.Otamuratov [10], Sh.Paxrutdinov [11], Sh.G'oyibnazarov [12], S.Safoev [13], A.Muxtorov, B.Umarov, A.Xudaybergenov va boshqalarning tadqiqot, monografiya va risolalarida tahlil etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar mavzuyimizni chuqur o'rganishda metodologik va nazariy ahamiyatga ega bo'ldi. Ammo, bugungi kungacha mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda globallashuvning milliy davlat suverenitetiga tahdidlari, vositalari va ularni bartaraf etish omillari siyosiy-falsafiy jihatdan maxsus tadqiqot obyekti sifatida fundamental tarzda o'rganilmagan. Mazkur maqolada mantiqiylik, qiyosiylik, kompleks-sistemali yondashuv, tarixiylik usullaridan foydalanildi.


MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy davlatlar suverenitetiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar deganda, muayyan milliy davlat suverenitetini to'g'ridan-to'g'ri cheklanishiga olib keladigan vositalar nazarda tutiladi. Va bu vositalar aksar hollarda milliy davlatlarning erki-irodasiga bog'liq bo'lmagan holda, obyektiv tarzda

suverenitetni cheklanishiga xizmat qiladi. Ularga: tashqi qarz, xalqaro tashkilotlarga a'zolik, tabiiy resurslar yetishmasligi, anklav va eksklav hududlarning mavjudligi hamda qo'shni davlatlar harbiy salohiyatining yuksalishini kiritdik. Quyida shu haqda batafsil to'xtalamiz.

Tashqi qarz. Bugungi kunda milliy davlat suverenitetiga ta'sir o'tkazishning eng qulay vositasi «qarz berish». Ayniqsa, endi rivojlanayotgan, iqtisodiyoti xomashyoga bog'langan, sanoati to'la shakllanmagan davlatlar uchun tashqi qarz – ularning hayot-mamot masalasiga aylangan. Ma'lumki, xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar, yoki davlatlar qarzni muayyan talablar, shartlar asosida berishadi va uning qaytarilmasligi riskini ham oldindan belgilab qo'yishadi. Dunyodagi deyarli barcha davlatlarning u yoki bu subektdan qarzi borligi ob'ektiv jarayon sifatida qaraladi. Biroq ushbu olinayotgan qarzlarning maqsadsiz, noo'rin sarflanishi taraqqiyotga emas, aksincha inqirozga, suverenitetning qo'ldan boy berilishiga sabab bo'ladi. Masalan, hozir asoratli qarzlarni berish bo'yicha oldingi o'rinlarda turuvchi Xitoy xalq respublikasi Shri-Lanka (Seylon), Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlarni mana shunday qiyin vaziyatga solib qo'yganligi boshqa davlatlar uchun saboq bo'lishi kerak.

Ayniqsa, O'zbekistonga o'xshagan ulkan tabiiy imkoniyatlarga ega mamlakat uchun tashqi qarzni kerakli sohalarga maqsadli yo'naltirilishi uning suverenitetining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston davlat tashqi qarzining o'sish dinamikasi keltirilgan:



1-rasm: O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzining hajmi 2022 yil 1 yanvar holatiga (milliard dollar)[14]

Ko'rinib turibdiki, so'nggi 6 yilda O'zbekiston davlat tashqi qarzining dinamikasi tobora yuqorilab, 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 23,6 mlrd. dollar, yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 38 foizni tashkil etgan. 2021 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi nomidan va davlat kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshmasligi belgilangan. Agar ushbu mablag'lar samarasiz sarf etilsa, uning salbiy oqibatlari aholi

yashash sharoitining yomonlashuviga va bora-bora milliy davlat suverenitetini cheklanishiga olib kelishi mumkin. Eng yomon tomoni, oqibatda davlat yerlari boshqa tashqi kuchlar nazoratiga o'tib ketishi mumkin. Buni Xitoy va Tojikiston davlatlari o'rtasidagi qarz munosabati misolida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra 2011 yil Tojikiston parlamenti Tog'li Badahshonning 1,1 ming kvadrat km.ni Xitoy xalq respublikasiga o'tkazish to'g'risidagi hujjatni ratifikatsiya qilganligi ayon bo'ldi. Eng qizig'i ushbu holat Xitoy OAV orqali sizdirilgan axborotlar orqali ma'lum bo'lgani tojik hamjamiyatini ham hayratda qoldirdi. Bundan xulosa sifatida o'zbek jamiyatini qarz olish va uning maqsadli sarflanishi borasida shaffoflikni oshirishi, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishi zarurligi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro tashkilotlarga a'zolikning milliy davlat suverenitetini cheklashi inkor etib bo'lmaydigan qoida, ya'ni aksiomadir. Ayniqsa, globallasuv sharoitida xalqaro aloqalarning kuchayishi fonida xalqaro tashkilotlarning milliy davlatlar siyosatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlari kengayib borayotganligini alohida qayd etish joizdir. Chunki har qanday davlat muayyan tashkilotga ma'lum shartlar va talablarga bo'ysunish majburiyatini olgan holda kiradi. Bu esa uning suverenitetini qaysidir ma'noda cheklanishiga sabab bo'ladi. Agar ushbu tashkilotlarga teng huquqlilik ta'minlangan bo'lsa, barcha a'zo davlatlarning manfaatlari bir xilda ifoda etilsa unda xavotirga asos yo'q. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 193 davlat uchun teng huquq va imkoniyatlar taqdim etilgan. Hatto ushbu tashkilotga a'zolik suverenitetning xalqaro maydonda e'tirof etilganligini bildiradi va shu bilan birga kafolatlaydi ham. Lekin muayyan xalqaro tashkilotda ba'zi davlatlarning manfaati boshqa a'zolarinikiga nisbatan ustun bo'lsa, unda bunday tashkilotni beg'araz deb bo'lmaydi. Masalan, bugungi kunda Markaziy Osiyo respublikalari orasida keng muhokamalarga sabab bo'layotgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (keyingi o'rinlarda YeOII) haqida fikr yuritsak. Ma'lumki, YeOIIga Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Qirg'iziston hamda Armaniston a'zo bo'lib, 2020 yildan O'zbekiston va Kuba respublikalari «kuzatuvchi» sifatida qabul qilindi. Ushbu ittifoqqa O'zbekistonni to'laqonli jalb qilinishiga bo'layotgan harakatlar, shubhasiz bugun o'zbek jamiyati orasida turli munozalarga sabab bo'lmoqda. Chunki YeOII o'zida ko'proq iqtisodiy emas, aksincha geosiyosiy maqsadlarni ifoda etayotgandek taassurot uyg'otmoqda. Buni ba'zi tahlilchilar Rossiya imperializmining yangi ko'rinishi, yoki sobiq sovet ittifoqining qayta tiklanishi sifatida baholashmoqda. Albatta, bu O'zbekistonga o'xshagan milliy davlatlar suverenitetiga tahdid bo'lishi mumkin. Biz ittifoqqa qarshi emasmiz. Boisi globallasuv jarayonida turli darajadagi integratsiyalar tabiiy jarayondir. Lekin biz faqat teng huquqli ittifoqlar tarafdorimiz. Hech kim bir-biriga bosim o'tkazmaydigan, «do'q» qilmaydigan tuzilmalarga kirishni juda-juda istaymiz,

hatto shunga intilamiz ham. Masalan, Jahon savdo tashkilotiga a'zolik masalasi o'zbek jamiyati tomonidan YeOIIga qaraganda uncha bahs-munozaralarga sabab bo'lmayapti, garchand ushbu tashkilotning muayyan talablari suverenitetni cheklanishiga olib kelsada. Chunki jahon savdo tashkiloti 164 ta davlat bilan kafolatlangan teng huquqli shartlar asosida iqtisodiy munosabatlarni ta'minlay olish tajribasiga egadir. YeOII esa Rossiya gegemoniyasi asosida faoliyat yuritib, qolgan a'zo davlatlar manfaatini inobatga olmasligini isbotlagan. Buni Rossiya-Qozog'iston, Rossiya-Belorusiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash, bojxona bo'yicha ittifoq doirasida turli kelishmovchiliklar sodir bo'layotgani misolida ko'rib turibmiz.

Tabiiy resurslar yetishmasligi ham milliy davlat suverenitetini bevosita cheklanishiga sabab bo'luvchi vositadir. Avvalo, tabiiy resurslar deganda, ona tabiat tomonidan in'om etilgan jamiki yerusti va yerosti boyliklari, suv havzalari, yerlarning unumdorligi, iqlim, ob-havo sharoitlari nazarda tutiladi. Shundan kelib chiqib, albatta muayyan davlat boshqa davlatga yo unumdor yer, yo suv, yoki qaysidir foydali qazilma borasida «murojaat» qilishga majbur bo'ladi. Albatta, Rossiyaga o'xshagan ulkan hududga ega davlatlar uchun ushbu omil suverenitetni cheklash darajasida salbiy ta'sir etmasligi mumkindir, lekin dunyoning aksar mamlakatlari tabiiy resurslar borasida bir-biri bilan «hisoblashish»ga majbur. Jumladan, O'zbekistonga o'xshagan suv resurslari cheklangan milliy davlatlar doimo qo'shnilar bilan aloqalarini «iliq» saqlashi juda muhimdir. Chunki iqtisodiyotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadigan ushbu davlat uchun suv resurslarining manbaasi qo'shni mamlakat hududida shakllanadi. Yoki Germaniya federativ respublikasining energiya resurslari borasida Rossiya federatsiyasiga «muhtojligi», uning o'z prinsiplariga qarshi borib bo'lsada ba'zi masalalarda yon berishga majbur qilmoqda. Chunki Rossiyaning ulkan energiya resurslariga nafaqat Germaniya, balki butun Yevropada talab o'sishi kelajakda ham bardavom bo'ladi. Shuning uchun ham Aleksey Navalniy borasida bahs-munozaralar, AQShning «Shimoliy Oqim 2» loyihasiga qarshi qanchalik bosimi bo'lmasin Yevropa o'z kelajagi oldida Rossiyadan butunlay voz kecha olmaydi va konsensus choralari axtarishga harakat qiladi.

Anklav va eksklav hududlarning mavjudligi ham bugungi kunda milliy davlatlar suverenitetiga bevosita ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, anklav va eksklav hududlar deganda, bir davlatning barcha tarafdan boshqa bir davlatning quruqlikdagi hududi bilan qurshab olingan hududi yoki hududining bir qismi tushuniladi (2-rasmga qarang).



Bu yerda **Y** davlat hududi **X** davlat uchun anklav, **Y** davlat uchun eksklav hisoblanadi.

2-rasm. Anklav va eksklav hudud

Hozirda dunyo bo'ylab milliy darajadagi 50 ga yaqin anklav hududlar mavjud bo'lib, bu bir qator davlatlararo nizolarga sabab bo'lmoqda. Jumladan, 2020 yil may oxirida So'x anklavida O'zbekiston-Qirg'iziston fuqarolari o'rtasida sodir bo'lgan ommaviy tartibsizliklar, 2021 yil aprel oyining oxirlarida Qirg'iziston-Tojikiston chegarasidagi mojarolar qurolli to'qnashuvga aylanib ketganligi ham anklav va eksklav hududlar masalasining nechog'li dolzarb ekanligini kun tartibiga chiqardi. Birgina O'zbekistonga tegishli to'rtta eksklav (Qirg'iziston hududida joylashgan So'x, Shohimardon, Cho'ng'ara, Jangayl) va ikkita anklav (Qirg'izistonga tegishli Barak hamda Tojikistonga tegishli Sarvak) hududlari mavjud bo'lib, ularni delimitatsiya hamda demarkatsiya ishlari hali-hanuz yakunlamagan. Bu esa kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan mojarolarga olib kelishi mumkin. Natijada ushbu mojarolardan boshqa tashqi kuchlar o'z manfaati yo'lida foydalanishi ehtimoli yuqori bo'lib, milliy davlatlar suvereniteti xavf ostida qoladi. Shuning uchun ham O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ko'pvektorli, konstruktiv tashqi siyosat yuritish borasidagi muvaffaqiyatli qadamlari Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligini yangi pallaga olib chiqayotganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, 2017 yilda davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari har yili uzluksiz tashkil etilib kelinmoqda. 2018 yil mart oyida Qozog'iston poytaxti Nur-Sulton shahrida, 2019 yil noyabrda Toshkent shahrida va 2021 yil 6 avgustda Turkmanistonning «Avaza» milliy sayyohlik zonasida uyushtirilgan ana shunday uchrashuvlar qardosh xalqlarning jipslashib, muammolarni birgalikda hal qilish imkonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqa xavfsizligi uchun juda katta ahamiyat kasb etadi.

Qo'shni davlatlar harbiy salohiyatining yuksalishi. Shubhasiz, harbiy salohiyat bugungi kun geosiyosatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Davlatning harbiy salohiyati deganda, undagi harbiy askarlar soni, tayyorgarligi, zamonaviy harbiy texnika va qurollarning mavjudligi va doimo, har qanday vaziyatda (tinchlik yoki urush holatidan qat'iy nazar) shay holatdaligi nazarda tutiladi.

O'tgan asrda Sovuq urush nomi bilan atalgan qurollanish poygasi bugun globallashuv shiddatidan yangicha ko'rinish kasb etmoqda. Hatto globallashuvning o'zini yangi sovuq urushga nisbat berishayotgani (Tomas Fridman) bejiz emas albatta. Ayniqsa, yuksak harbiy salohiyatga ega davlatlarning doimo yon qo'shnilari suvereniteti uchun xavf bo'lib qolayotgani xavfsizlikka doimiy tahdid mavjudligini anglatmoqda. Jumladan, Shimoliy Koreyaning harbiy salohiyati qo'shnilari Janubiy Koreya va Yaponiya suvereniteti uchun, Rossiyaning harbiy salohiyati esa qo'shnisi Ukraina va boshqa Sharqiy Yevropa mamlakatlari suvereniteti uchun real xavf sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa qolgan davlatlarga Germaniyaning mashhur kansleri Otto fon Bismark aytganidek: «Tinch yashashni xohlasang urushga tayyorlan» taktikasini qo'llashga majbur qilmoqda. Masalan, 2021 yil mart-aprel oylarida Rossiya qo'shinlarining ko'p miqdorda anneksiya qilingan Qrim yarimoroli va chegaradosh hududlarda to'planishini hamda harbiy tayyorgarlik mashqlarini muntazam ravishda o'tkazib turishini Ukraina suvereniteti, davlat yaxlitligi uchun xavf sifatida baholab jahon hamjamiyatidan yordam so'ragan edi. Bu boshqa postsovet o'lkalariga ham ogohlik qo'ng'irog'i sifatida qaralishi lozimligini anglatadi.

Qolaversa, yildan yilga jahonda garchi katta miqyosda urushlar kuzatilmasada harbiy xarajatlarning miqdori oshib borayotganligi tahlikalidir. Stokgolm xalqaro tinchlik tadqiqot instituti bergan ma'lumotiga ko'ra 2019 yil dunyoda harbiy harajatlari 1 trillion 917 milliard dollarga yetib, 2010 yildan buyon eng katta o'sishni qayd etgan. Ushbu harbiy harajatlarning 62 foizi atiga 5 ta davlat – AQSh, Xitoy, Hindiston, Rossiya va Saudiya Arabistoni hissasiga to'g'ri keladi[15]. Ushbu holat qancha mablag' talab qilmasin xavfsizlik, mamlakat yaxlitligi, davlat suvereniteti har narsadan qimmatliroq va qadrliroq ekanligidan dalolat beradi. Hozirda ham mamlakatlar harbiy salohiyati ko'p muammolarni hal etish qobiliyatini namoyon qiladi.

Iqtisodiy sanksiyalar globallashuv sharoitida milliy davlatlar suverenitetiga ta'sir o'tkazishning eng ta'sirchan vositalaridan biriga aylandi. Chunki bugungi kunda harbiy salohiyatni ishga solish orqali maqsadga erishish juda qiyin va katta mablag'ni talab qilgani uchun ham iqtisodiy sanksiyalar qulay chora bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, iqtisodiy sanksiyalar biror e'tirozli siyosatga qo'l urgan mamlakatga o'z siyosatini o'zgartirishi yoki undan voz kechishi uchun qo'llaniladi. Bu esa o'z-o'zidan muayyan davlat suverenitetiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir o'tkazishga harakat hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida bir mamlakatga qo'llanilgan sanksiyalar uning atrofidagi qo'shnilariga «zanjir» kabi ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Masalan, hozirda bir qator davlatlar va ularning mansabdor shaxslariga nisbatan sanksiyalar joriy qilish bo'yicha AQSh yetakchilik qilayotgan bo'lsa, «Qrim anneksiyasi», «Navalniy ishi» bo'yicha Rossiya sanksiyalar «girdobi»da qolmoqda. Lekin e'tiborli tomoni

shundaki sanksiyalarning har doim ham ish bermasligi yuzaga keldi. Misol uchun Rossiyaga o'xshagan davlatlar sanksiyalar «og'ushi»da yashashga «adaptatsiya» hosil qildi, ya'ni sanksiyalar ushbu mamlakatda deyarli samarasiz ta'sir qilmoqda. Bu sanksiyalarning hamma vaqt ham tegishli natija ko'rsatmasligini bildiradi. Chunki iqtisodiyoti tezda diversifikatsiyalashga moyil, eksportga unchalik qaram bo'lmagan davlatlar uchun sanksiyalarning ta'siri u qadar sezilmasligi, yoki aksincha ta'sir etishi mumkin. Buni AQShning 2000 yilgacha Meksikaga kiritgan sanksiyalari Meksika yalpi ichki mahsulotining 5 foiz miqdorda oshishiga xizmat qilganligi misolida ko'rishimiz mumkin. Lekin sanksiyalar iqtisodiyoti muayyan ishlab chiqarish turi bilan cheklangan davlatlarga samarali ta'sir etishi bir necha bor isbotlangan. Masalan, Uganda va Liberiya davlatlariga o'z vaqtida qo'llangan sanksiyalar samarali natija berib, Uganda prezidentining mamlakatdan qochib ketishiga, Liberiya prezidentining esa iste'foga chiqishiga olib kelgan edi[16].

Avtonom hududlar. Ma'lumki, avtonom hududlar ma'lum bir davlat tarkibidagi o'zini o'zi boshqaruvchi mustaqil siyosiy tuzilma bo'lib, ularning mustaqilligi o'sha «himoyasi»ga olgan davlat tomonidan ta'minlanadi. Bugungi kunda 40 ta mamlakatda 121 ta avtonom hudud bo'lib, ular bir paytning o'zida milliy davlat suverenitetiga ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib ham bo'lmoqda. Masalan, birgina Rossiya federatsiyasi tarkibida 21 ta respublika mavjud bo'lib, ularda turli millat, e'tiqod, qadriyat, dunyoqarash vakillari istiqomat qiladi. Bu esa federativ boshqaruvda avtonom hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, bir tomonlama emas, ko'p qirrali siyosat yuritishlarini taqozo qiladi. Aks holda ushbu avtonom hududlar mustaqillik da'vo qilib, separatizmni yuzaga keltirishi, bu esa federatsiyaning tarqalib ketishi mumkinligini istisno qilmaydi. Jumladan, Shotlandiyaning Buyuk Britaniya tarkibidan ajralib chiqish harakatlari yagona davlat yaxlitligiga xavf solmay iloji yo'q. Ma'lumki, Shotlandiya 2014 yilda Buyuk Britaniyani tark etish uchun referendum o'tkazgan edi, o'shanda saylovchilarning aksariyati Buyuk Britaniya tarkibida qolish uchun ovoz bergan. Lekin 2016 yildagi Breksit jarayonlarida mamlakat aholisining aksariyati Breksitni qo'llab-quvvatladi, Shotlandiya esa Yevropa Ittifoqida qolish uchun ovoz berdi. Shundan so'ng Shotlandiya hukumati mustaqillik to'g'risida yangidan ovoz berish zarurligini e'lon qilib, 2021 yil 6 maydagi Shotlandiya parlamentiga saylovlarda mustaqillik tarafdorlari ko'pchilik ovozni qo'lga kiritdi va bu so'nggi 7 yil ichidagi ikkinchi referendum bo'lishi kutilmoqda. Shunday ekan muayyan davlat tarkibidagi avtonom hududlar bu o'sha mamlakat yaxlitligiga xavf solish imkonini beruvchi «nozik» nuqta bo'lib hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi axborotlashgan, globallashuv shiddatli tarzda kechayotgan sharoitda endi rivojlanish yo‘liga kirgan milliy davlatlar suverenitetini saqlab qolish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, “globallashuv sharoitida tahdidlar urushning zamonaviy qiyofasi shaklida namoyon bo‘lmoqda” [17]. Biz yuqorida milliy davlatlar suverenitetiga bevosita ta’sir o‘tkazuvchi vositalarni o‘zimizga ma’lum qisminigina imkon darajasida tahlil qildik. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa hukumatlarni milliy davlatchilik asoslarini, millatni saqlab qolish choralarini kuchaytirishga undashdan iborat. Zero, shuni unutmash kerakki, har bir millat, mamlakat uchun o‘z manfaatlari ustuvor bo‘lib, hech kim bir-biriga «beg‘araz» yordam bermaydi. Hatto bugun taraqqiy etgan, qudratli davlatlar ham garchand kuchli harbiy salohiyatga ega bo‘lishsada o‘z suverenitetini to‘laqonli ravishda kafolatlay olmagan. Shuning uchun ham ular o‘z manfaatlari yo‘lida boshqa millatlarni, davlatlarni «qurbon» qilishi mumkinligini bugungi kun Yaqin Sharq, mintaqasidagi, ahvol isbotlab turibdi. Bu esa endi rivojlanayotgan milliy davlatlar uchun «ogohlik belgisi» bo‘lishi darkor.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI // REFERENCES

1. Бек У. Что такое глобализация? — М.: Прогресс-Традиция, 2001; // Bek U. What is globalization? - M.: Progress-Tradition, 2001;
2. Болдуин Р. Великая конвергенция: информационные технологии и новая глобализация. – М.: Дело, 2018; // Baldwin R. The Great Convergence: Information Technology and the New Globalization. – М.: Delo, 2018;
3. Гидденс Э. Ускользящий мир: как глобализация меняет нашу жизнь. – М.: Весь Мир, 2004; // Giddens E. The elusive world: how globalization is changing our lives. - М.: Ves Mir, 2004;
4. Cory J., Petro M. Globalization vs.National Sovereignty. – Fort Leavenworth, Kansas, 2017;
5. Julian G. Ku and John Yoo, Globalization and Sovereignty, 31 Berkeley J. Int’l L. 210 (2013).
6. Делягин М.Г. Конец эпохи: осторожно, двери открываются! Том I., Том II Общая теория глобализации. – М.: Книжный мир, 2019; // Delyagin M.G. End of an era: watch out, the doors are opening! Volume I., Volume II General Theory of Globalization. – М.: Knizhny Mir, 2019;
7. Исаев И.А. Суверенитет: закрытое пространство власти. – М.: Проспект, 2017; // Isaev I.A. Sovereignty: closed space of power. – М.: Prospekt, 2017;

8. Грачев Н.И. Происхождение суверенитета: Верховная власть в мировоззрении и практике государственного строительства традиционного общества. – М.: Зеркало-М, 2009; // Grachev N.I. The origin of sovereignty: Supreme power in the worldview and practice of state-building traditional society. - M.: Mirror-M, 2009;
9. Азроянц Э. А. Глобализация: катастрофа или путь к развитию? Современные тенденции мирового развития и политические амбиции. – М.: Новый век. 2002; // Azroyants EA Globalization: catastrophe or path to development? Modern trends in world development and political ambitions. – М.: New century. 2002.
10. Otamuratov S. Globalashuv: millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari). T.: O'zbekiston, 2018; // Otamuratov S. Globalization: the responsibility of protecting the nation (political-philosophical aspects). T.: Uzbekistan, 2018;
11. Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch (maqola va ma'ruzalar to'plami). T.: Akademiya, 2001; // Pakhrutdinov Sh. Threat is a destructive force (a collection of articles and lectures). T.: Academy, 2001;
12. G'oyibnazarov Sh. Xalqaro terrorizm: ildizi, omillari va manbalari. T.: O'zbekiston, 2013; // Goyibnazarov Sh. International Terrorism: Roots, Factors and Sources. T.: Uzbekistan, 2013.
13. Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2005; // Safoev S. Geopolitics in Central Asia. T.: University of World Economy and Diplomacy, 2005;
14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi 2021 yil uchun» qo'llanmasi. T.: 2022; // The manual of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan "Review of the state and dynamics of the state debt of the Republic of Uzbekistan for 2021". T.: 2022;
15. Stokgolm Xalqaro tinchlikni tadqiq etish instituti rasmiy veb sahifasi - <https://www.sipri.org/yearbook/2020>; // The official website of the Stockholm International Peace Research Institute - <https://www.sipri.org/yearbook/2020>;
16. Ro'ziyoxunov A. Sanksiyalar nega kerak va ular qanday ta'sir o'tkazadi - <https://m.kun.uz/uz/news/2018/09/02/sankcialar-nega-kerak-va-ular-kandaj-tasir-utkazadi> // Ro'ziyoxunov A. Why sanctions are needed and how they affect - <https://m.kun.uz/uz/news/2018/09/02/sankcialar-nega-kerak-va-ular-kandaj-affects>
17. Hamroyev S.S. Mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirish davlat suverenitetini globalashuv tahdidlaridan himoya qilish omili. Falsafa va hayot xalqaro jurnal №SI-1 | 2021. 114-120. // Khamroev S.S. Development of the country's intellectual potential is a factor in protecting state sovereignty from the threats of globalization. Philosophy and life. №SI-1 | 2021. 114-120.